

IRIM-SIRIMLARNING ETNOGRAFIK RAKURSDA O'RGANILISHI

Nasiba Xamroyevna TURSUNOVA

dotsent

Navoiy davlat universiteti

Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada dunyo folklorshunosligda irim-sirimlarning etnografik rakusda o'rganilishi ilmiy tadqiq qilingan. Magik tasavvurlar irim bilan bog'liq tasavvurlarni keltirib chiqarishi, ularlarning ta'bu bilan aloqadorligi, o'z navbatida, avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib kelaverishi haqidagi ilmiy mulohazalar asoslangan.

Tayanch so'zlar: irim, magiya, etnografiya, qadimiy, tarixiy, ruhiy, odat.

ИЗУЧЕНИЕ СУЕВЕРИЙ И ПРИМЕТ В ЭТНОГРАФИЧЕСКОМ РАКУРСЕ

Насиба Хамроевна ТУРСУНОВА

доцент

Навоийский государственный университет

Навои, Узбекистан

Аннотация

В статье с научной точки зрения исследовано изучение суеверий и примет в мировой фольклористике в этнографическом ракурсе. Обоснованы научные положения о том, что магические представления порождают представления, связанные с суевериями, что они связаны с табу и, в свою очередь, передаются из поколения в поколение, из уст в уста.

Ключевые слова: суеверие, магия, этнография, древний, исторический, духовный, обычай.

Irim-sirimlar insoniyat madaniyati va tafakkuri tarixidagi eng qadimgi, shu bilan birga eng barqaror fenomenlardan biridir. Jamiyat qanchalik ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga erishmasin, irim-sirimlar turli shakl va ko'rinishlarda odamlarning maishiy turmushida, ruhiyatida hamda marosimlari tizimida saqlanib qolmoqda. Irim-sirimlarni faqat "sodda va savodsiz odamlarning yanglishishi" yoki "johillik mahsuli" sifatida talqin qilish etnografiya va antropologiya fanlari nuqtai nazaridan noto'g'ridir. Chunki irim-sirimlar – insonning atrof-muhitni anglashga va noaniqlik sharoitida ruhiy muvozanatni saqlashga bo'lgan tabiiy intilishining tarixiy mahsulidir. Irim-sirimlar madaniy-tarixiy xotira va psixologik himoya mexanizmi vazifasini bajaradi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, irimlar mantiqiy-

fizik sabab-oqibat aloqadorligiga emas, balki asosan mistik, assotsiativ va emotsional bog‘liqlikka tayanadi. Jahon va milliy etnografiya fani tomonidan irim-sirimlarning o‘rganilishi insoniyat tafakkurining taraqqiyot bosqichlarini va xalqlarning ma’naviy-etnografik qiyofasini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Irim-sirimlar asosan animistik tafkkur natijasida shakllanganligi bois animistik ishonch-e’tiqodlar etnografiya va madaniy antropologiya fanining eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida shakllangan bu qarashlar atrof-muhitni anglash, xavf-xatardan saqlanish va ruhiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida paydo bo‘lgan.

Jahon etnografiyasida irimlarni tizimli ravishda tadqiq etgan yetakchi olimlardan britaniyalik mashhur etnograf Edvard Bernett Taylor irim-sirimlarni jamiyat taraqqiyotining o‘tmish bosqichlaridan saqlanib qolgan “madaniy qoldiqlar” sifatida talqin etgan. Uning fikricha, kishilik jamiyatining ilk davrlarida mantiqiy va fundamental e’tiqod hisoblangan tushunchalar vaqt o‘tishi bilan o‘z asosiy vazifasini yo‘qotib, shunchaki odat va irim ko‘rinishida saqlanib qoladi [2; 70-144].

E.B. Taylorning “Ibtidoiy madaniyat: mifologiya, falsafa, din, san’at va urf-odatlarining rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar” asarining 1-jildida jahon etnografiyasi va antropologiyasida irim-sirimlar va animistik qarashlar ilmiy asosda tizimli tadqiq etilgan. E.B.Taylor mazkur asarda irim-sirimlarni evolyutsionizm nazariyasi asosida tahlil qilib, ularni insoniyat tafakkuri va madaniyatining o‘sish bosqichlarini o‘rganishda muhim “kalit” sifatida talqin etadi. Olimning asosiy nazariy konsepsiyasi – irimni “Madaniy qoldiqlar” (Survivals in Culture) sifatida baholashida ko‘zga tashlanadi.

Olimning tushuntirishicha, irim – bu jamiyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida aniq mantiqiy asosga, amaliy yoki diniy vazifaga ega bo‘lgan, lekin keyingi rivojlangan davrlarda o‘z mazmunini yo‘qotib, shunchaki odat, o‘yin yoki irim-sirim ko‘rinishida saqlanib qolgan e’tiqod yoki harakatdir. Irim-sirimlar (suyeveriya/superstitions) – bu bema’ni yoki mantiqsiz paydo bo‘lgan hodisalar

emas. Ular o'z davrida oqilona (ratsional) va tizimli bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan asl ildizi unutilib, faqat shakli (irimi) saqlanib qolgan.

E.B. Taylor irim-sirimlarning saqlanib qolishini bir necha omillar bilan tushuntiradi: Konservativlik va odat kuchi: Inson tafakkuri azaldan konservativ bo'lib, ajdodlardan qolgan urf-odatlarini saqlab qolishga moyil.

Assotsiativ mantiq (Association of Ideas): Ilk inson atrofdagi voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini noto'g'ri tushungan. Masalan, tushda ko'rilgan narsani o'ngida ham yuz berish alomati deb bilish yoki ikki bir-biriga bog'liq bo'lmagan voqeani tasodifan ketma-ket kelishini qoida deb qabul qilish.

Ruhiy va ijtimoiy qo'rquv: Xavf-xatardan saqlanish, kelajakni bilishga bo'lgan ishtiyoq (fol ochish) irimlarning saqlanishiga zamin yaratadi.

E.B.Taylor tadqiqotining 1-jildida dunyo xalqlari etnografiyasiga tayanib, ko'plab irimlarni aniq misollar bilan asoslaydi. Masalan: Kimdir aksa urganda "Sog' bo'ling" deyish odati haqida to'xtaladi. E.B.Taylorning uqtirishicha, bu irim jahonning deyarli sivilizatsiyalashgan barcha xalqlarida uchraydi. Ibtidoiy jamiyat kishilari insonning ruhi (joni) nafas orqali tanga kiradi yoki chiqadi deb ishonganlar. Aksa urganda tanadan ruh chiqib ketishi yoki yovuz ruh tanaga kirib olishi mumkin deb hisoblashgan. Shu sababli bir kishi aksa urganda boshqa kishi tomonidan "sog' bo'ling",-deb duo qilinishi – ruhni himoya qilish magiyasi bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan bu diniy/animistik tasavvur o'z magik mazmunini yo'qotib, oddiy muomala odatiga va irimga aylanib qolgan [2; 97–104].

Shuningdek, E.B.Taylor: "Fol ochish va bashorat irimlari (Divination) haqida ham kuzatishlar olib borgan. U fol ochish – shunchaki aldov emas, balki animistik dunyoqarashning mantiqiy davomidir. Ibtidoiy odam "tabiatdagi har bir narsada ruh bor",- deb tushungan va shu ruhlar ishora beradi deb hisoblagan. Masalan, qushlarning uchishi yoki hayvon a'zolarining holatiga qarab yo'l tutish. Zamonaviy davrdagi fol ochish irimlari – qadimgi zamondagi ana shu "tabiat tilini o'qish" tizimining qoldig'idir" [2; 118–133].

E.B. Taylor nasroniylik yoki boshqa yirik dinlar rasman qabul qilingandan so'ng ham, xalq orasida qadimgi politeistik va animistik irimlar saqlanib qolishini

ko'rsatadi. Masalan, azizlar ruhiga sig'inish, ma'lum kunlari ish boshlamaslik, tumor ta'qish kabi irimlar – xristianlikgacha bo'lgan madaniyatlarning yashirin “qoldiqlari”dir, deydi.

E.B.Taylorning mazkur asaridagi irim-sirimlar tahlili etnografiya fanida yangi bosqichni ochib berdi. Jumladan, olim turli qit'alardagi (Yevropa, Osiyo, Amerika, Okeaniya) bir-biridan mustaqil yashaydigan xalqlarning irimlarini qiyoslab, insoniyat tafakkurining yagona qonuniyatlar – psixik birlik konsepsiyasi bo'yicha rivojlanishini isbotladi. E.B.Taylorgacha bo'lgan davrda irim-sirimlar shunchaki “johil va savodsiz odamlarning bema'ni afsonasi” deb qaralgan bo'lsa, Taylor ular orqali insoniyat tarixi va o'tmish dunyoqarashini tiklash mumkinligini ko'rsatdi.

Shotlandiyalik etnograf va dinshunos Jeyms Jorj Frezer irimlar va sehr-jodu (magiya) mexanizmlarini chuqur tadqiq etar ekan, u irimlarni magiya bilan bog'laydi. Jeyms Jorj Frezerning mazkur fundamental asari jahon etnografiyasi va dinshunosligida irim-sirimlar va sehr-joduning nazariy manbalarini tizimlashtirib bergan asosiy asardir. Frezer irim-sirimlarni tasodifiy xurofot emas, balki insoniyatning ilk tafakkur bosqichidagi “soxta fan” (false science) va “xato san'at” (bastard art) sifatida talqin qiladi. Frezer asarining “Simpatik magiya” qismida irim-sirimlar va magiyaning psixologik va nazariy mexanizmini ochib beradi.

Uning ta'kidlashicha, barcha irim-sirimlar va magik amaliyotlar asosida fikrlarni tartiblashning ikkita asosiy psixologik qonuni yotadi.

Bu: o'xshashlik va tegishlilik qonuni. Muallif ushbu ikki tamoyil asosida shakllangan magiya tizimini “Simpatik magiya” deb ataydi [1; 19–66]. U irim-sirimlar asosida yotuvchi magiyani ikki asosiy turkumga bo'ladi:

Imitativ (gomeopatik) magiya, kontagioz magiya: “Bir paytlar o'zaro aloqada bo'lgan narsalar ajratilgandan keyin ham bir-biriga ta'sir o'tkazadi”,- degan magik tasavvur natijasida paydo bo'lgan irimlar (masalan, soch, tirnoq yoki kiyim bilan bog'liq irim-sirimlar).

Yomg'ir chaqirish irimlari: Qurg'oqchilik paytida suv sepish, buloqni loyqalatish yoki bulutga o'xshash qora qo'yni so'yish orqali yomg'ir chaqirish.

Homiladorlik irimlari: Homilador ayol kiyimida yoki sochida tugun tugmasligi kerak, aks holda tug‘ruq yo‘li yopiladi,- degan irim. Tug‘ruqni yengillashtirish uchun barcha qulflar, eshiklar va tugunlarni yechish amaliyoti.

Kontagioz irim-sirimlar. Inson tanasidan ajralgan narsalar (soch, tirnoq, kiyim, tupuk, hatto oyoq izi) inson bilan sirli aloqada qoladi. Kesilgan soch yoki tirnoqni dushman qo‘liga tushmasligi uchun ko‘mib tashlash yoki yoqish irimi. Inson bosgan tuproq yoki izni duolash yoki zarar yetkazish orqali o‘sha odamning o‘ziga kasallik keltirish irimlari. Frezer irim-sirimlarni amaliy ta’siriga ko‘ra yana ikkiga bo‘ladi.

Bular: pozitiv magiya (bajariladigan amallar): “Biror narsa ro‘yobga chiqishi uchun X ishni qil” deydigan irimlar. Negativ magiya (Tabu – taqiqlar): “Ko‘ngilsizlik sodir bo‘lmasligi uchun Y ishni qilma” deydigan irim-sirimlar.

Dj.Dj.Frezning fikriga ko‘ra, “Tabu – bu negativ gomeopatik yoki kontagioz magiyaning o‘zginasidir”. Masalan: Ovga chiqqan odamning oilasi uyida pichoqni ochiq qoldirmasligi yoki go‘shni o‘tkir narsa bilan sanchmasligi kerak, aks holda ovchi jarohat oladi,- degan taqiq – negativ gomeopatik magiyadir [1; 19–66].

Dj.Frezer bashariyat tafakkur tarixini tahlil qilarkan, u tafakkur tajriyiy takomili borasida to‘xtaladi va uni uch bosqichda rivojlangan evolyutsion jarayoni va dunyoni anglash tarzini o‘rganadi. Dj. Frezer o‘zining mashhur konsepsiyasida insoniyat jamiyati va dunyoni anglash tarzini uchta ketma-ket bosqichga bo‘ladi:

Magiya (Irim-sirimlar davri): Inson tabiatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z harakatlari va irimlari bilan boshqara olaman deb ishongan davr.

Din: Irimlar va magiyaning ojizligi anglab yetilgach, inson o‘zidan kuchliroq bo‘lgan ilohiy kuchlar, ma’budlar va ruhlarga yalinish va sig‘inishni boshlagan bosqich.

Fan: Tabiat hodisalarining chinakam obyektiv qonuniyatlari tushunib yetilgan bosqich.

Ko‘rinadiki, Dj.Frezer irimlarni tabulashtirish va eng qadimiy magik tasavvurlar mahsuli sifatida talqin etadi. Uning asosiy nazariy qarashlari irimlar

mohiyatan magiyaga aloqadorlikda bo'lishi, irimlarning ta'bu bilan aloqadorligidir. Mana shu magik tasavvurlar irim bilan bog'liq tasavvurlarni keltirib chiqargan. Bu qarashlar, o'z navbatida, avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib kelavergan.

Angliya-polyak antropologiyasi asoschilaridan biri Bronislav Malinovskiy Trobriand orollarida o'tkazgan etnografik ekspeditsiyalarida to'plagan materiallari asosida yaratgan tadqiqotida irimlar va magiyaning funksional vazifasini ochib berdi. Uning ta'kidlashicha, inson o'z bilimi va insoniy imkoniyatlari cheklangan, xavf-xatar yuqori bo'lgan vaziyatlarda (masalan, ochiq dengizda baliq ovlashda) ruhiy xotirjamlik va ishonch hosil qilish uchun irimlarga murojaat qiladi [3; 19–35].

Bronislav Malinovskiyning mazkur asari va unga kiritilgan fundamental maqolalari jahon etnologiyasi va antropologiyasida irim-sirimlar, magiya hamda dinning nazariy masalalariga ijtimoiy-psixologik mexanizm – funksionalizm nuqtai nazaridan yondashgan eng muhim manbalardan biridir.

Malinovskiy Trobriand orollarida (Melaneziya) olib borgan ko'p yillik dala-etnografik tadqiqotlariga tayanib, E.B.Taylor va Dj. Frezerning “irim-sirimlar – bu shunchaki qadimgi notog'ri fikrlash qoldig'i va aqlsizlik”, - degan qarashlarini rad etadi. Malinovskiy irim-sirimlar va magik odatlarning bosh omili sifatida psixologik vaziyat va xavf-xatar omilini ko'rsatadi. Uning fikricha, irim-sirimlar insonga bilim, texnika va mantiq ojizlik qilib qolgan joyda zarur bo'lgan emotsional muvozanat, ishonch va ruhiy xotirjamlikni beradi [3; 17–36].

Malinovskiy an'anaviy jamiyat odamlarini “sof aqlsiz” yoki faqat irimga ishonadigan guruh deb hisoblovchi Levi-Bryul va Dj.Frezer fikriga tanqidiy munosabat bildiradi. Uning tahlilicha, an'anaviy insonda aniq, amaliy va oqilona ilmiy bilim ham, irim-sirim va magiya ham yonma-yon yashaydi. Inson o'z mehnati va tajribasi bilan nazorat qila oladigan sohalarida (masalan, oddiy dehqonchilik, chorvachilik, qayiq yasash, lagunada baliq tutganda) irimlarga tayanmaydi, balki aniq amaliy bilimlardan foydalanadi. Biroq inson o'z bilimi bilan nazorat qila olmaydigan, noaniqlik va xavf yuqori bo'lgan vaziyatlarda

(masalan, ochiq dengizda to‘fonga duch kelish, kutilmagan kasallik, qurg‘oqchilik) magiya va irimlar paydo bo‘ladi [3; 29–31].

Malinovskiy irim-sirimlarning paydo bo‘lish vazifasini ko‘rsatish uchun mashhur laguna va ochiq dengiz baliqchiligi misolini keltiradi. Lagunada (tinch suvda) baliq ovlash. Bu yerda natija kafolatlangan va xavf yo‘q. Shu sababli Trobriand aholisi lagunada baliq ovlaganda hech qanday irim-sirim, tumor yoki magiyadan foydalanmaydi.

Ochiq okeanda baliq ovlash: Bu yerda xavf juda yuqori, to‘fon ko‘tarilishi yoki baliq tushmasligi ehtimoli katta. Shu sababli okeanga chiqishdan oldin baliqchilar juda ko‘p irim-sirimlar va magik amallarga rioya qilishadi. Olimning ilmiy qarashlariga ko‘ra, “Magiya va irim-sirimlar fan yoki bilim o‘rnini bosmaydi, balki bilim tugaydigan va noaniqlik boshlanadigan joyda paydo bo‘ladi” [3; 29].

B.Malinovskiy tadqiqot ishida irimlarning asosiy vazifasi – xavotirni yo‘qotish ekanini isbotlaydi. Uning tushuntirishicha, inson xavfli vaziyatda ojiz qolganda (masalan, yaqin odami og‘ir kasal bo‘lganda), hech narsa qilmay o‘tirish psixologik jihatdan juda og‘ir. Shunday paytda irim-sirim (tumor taqish, ma‘lum xatti-harakatni bajarish, suv sepish va h.k.) insonga “men xavfga qarshi nimadir qildim”,- degan illyuzor nazorat tuyg‘usini beradi va unga umid baxsh etadi. Bu amaliyot jamiyatni va shaxsni psixologik tushkunlik va falajlikdan saqlab qoladi. [3; 33–34].

Fransuz etnologi va faylasufi Lyusyen Levi-Bryulning 1910-yil e‘lon qilingan “Ibtidoiy jamiyatlardagi aqliy vazifalar” nomli ilmiy asari jahon etnologiyasida irim-sirimlar va an‘anaviy jamiyatlar dunyoqarashini tushunishda muhim nazariy burilish yasagan manbalardan biri bo‘ldi. Levi-Bryul E.Taylor va Dj.Frezer kabi ingliz evolyutsionistlarining “ilk inson ham zamonaviy inson kabi bir xil mantiq bilan fikrlagan, faqat tajribasi va bilimi kam bo‘lgani uchun irimlarga ishongan”,- degan g‘oyasini rad etadi. Uning ta‘kidlashicha, ibtidoiy jamiyat vakillarining fikrlash tarzi va dunyoni anglash mexanizmi fundamental jihatdan farq qiladi.

Levi-Bryul irim-sirimlarning tarixiy asosini an'anaviy jamiyatlarga xos bo'lgan "prelogik" (mantiqdan oldingi) fikrlash tarzi bilan bog'laydi. Prelogik fikrlash nima? Bu aqlsizlik yoki mantiqsizlik emas. Bu – zamonaviy aristotelcha mantiq qoidalariga bo'ysunmaydigan, o'ziga xos mantiqiy tizimdir. Irim-sirimlar ana shu prelogik tafakkurning mahsuli bo'lib, unda tabiiy hodisalar fizik sabablar bilan emas, balki mistik (g'ayritabiiy) kuchlar bilan tushuntiriladi [4; 17–67].

Levi-Bryul konsepsiyasining eng markaziy g'oyasi – an'anaviy tafakkurda obyektlar, jonzorlar, so'zlar yoki harakatlar o'rtasida masofa, vaqt va fizik aloqaga bog'liq bo'lmagan mistik bog'liqlik mavjud,- deb ishoniladi. Insonning sochi, tirnog'i yoki izi uning o'zi bilan mistik birlikni tashkil qiladi. Shu sababli "sochga zarar yetkazib odamni kasal qilish mumkin",- degan irim paydo bo'ladi. Bu yerda moddiy sabab emas, mistik aloqadorlik ustunlik qiladi.

Levi-Bryul Emil Dyurkgeymning sotsiologik nazariyasiga tayanib, irim-sirimlarni individual emas, balki jamoaviy tasavvurlar mahsuli,- deb qaraydi. Olimning fikricha, "irim-sirimlar alohida shaxs tomonidan o'ylab topilmaydi – ular jamiyat tomonidan tayyor holda, his-tuyg'u va mistik qo'rquvlar bilan yo'g'rilgan holda inson ongiga singdiriladi" [4; 43].

Tadqiqotchi inson atrof-muhitni xolis kuzatmaydi, balki uni mistik sifatlar bilan ko'radi. Suv, olov, hayvonlar va o'simliklar faqat moddiy obyekt emas, balki alohida "kuch" va ishora (irim manbai) sifatida qabul qilinishini asoslaydi.

O'zbek etnologiyasida irim-sirimlar, islomdan oldingi arxaik e'tiqodlar va xalq marosimlarini mustaqillik davri konsepsiyalari asosida tadqiq etgan yetakchi etnograf olimlardan biri Adhamjon Ashirov tadqiqotlarida ham o'zbek xalq irimlari, ularning tarixiy asoslariga doir yangi ilmiy nazariy xulosalar qo'lga kiritildi. A.Ashirovning tadqiqotlarida o'zbeklarning olov (Zardushtiylik qoldiqlari), suv, daraxt, tosh va hayvonlar bilan bog'liq irim-sirimlari, tug'ruq, to'y va dafn marosimlaridagi apotropeik (asrovchi) irim-sirimlarning kelib chiqishi va ijtimoiy vazifasi ilmiy asoslab berilgan.

Xullas, irim-sirimlar xalqning o'ziga xos milliy o'zligini anglatuvchi muhim qadriyat sifatida XIX asrning o'rtalaridan ziyolilar e'tiborini torta boshlagan. XX

asrning ikkinchi yarmidan boshlab, irimlar etnorafik aspektida churroq tadqiq etila boshlandi. O'zbekistonda o'tkan asrning ikkinchi yarmidan keyingi davrda o'zbek xalq irimlari va qadimiy e'tiqod izlarining o'zaro bog'liqligi masalalari tizimli tadqiq etila boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фрэзер Дж. Дж. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. Том 1. – Москва: Политиздат, 1980.
2. Tylor E.B. Primitive Culture: Researches into the Development of Mythology, Philosophy, Religion, Art, and Custom (Vol. 1) Project Gutenberg. – London: John Murray, 1871.
3. Bronisław Malinowski. Magic, Science and Religion and Other Essays Goodreads. – Glencoe, Illinois: Free Press, 1948.
4. Lucien Lévy-Bruhl. Les fonctions mentales dans les sociétés inférieures. – Paris: Félix Alcan, 1910.